

## O‘ZBEK TILIDA “VATAN” KONSEPTOSFERASINING PRAGMAKOGNITIV TABIATI

**Nabiyeva Diloru Abdulhamidovna**

Andijon davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor  
Andijon, O‘zbekiston

E-mail: [diloranabieva385@gmail.com](mailto:diloranabieva385@gmail.com)

**Xamidova Gulchehra Poziljonovna**

Andijon davlat universiteti, tadqiqotchi  
Andijon, O‘zbekiston

E-mail: [xamidovagulchexra7@gmail.com](mailto:xamidovagulchexra7@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan konseptual til birliklarining pragmakognitiv talqini masalasiga bag‘ishlangan. Tahlil qilinayotgan tushuncha idrok, tasavvur, nutq jarayonlarini o‘z ichiga olgan bilimlarni o‘zlashtirish va ongning ishlashiga qaratilgan barcha aqliy faoliyat yoki holatlarni qamrab oladi.

**Kalit so‘zlar:** antroposentrik paradigma, kognitiv faoliyat, kognitiv tilshunoslik, konsept.

Til va tafakkur masalasini turli davr va xalqlar mutafakkirlari asarlarida antik davrdan to hozirgi kungacha uchratish mumkin. Biroq, lingvokognitiv muammolarning keng ko‘lamda tadqiq etilishi faqat XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida boshlandi. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo‘nalishlarda lisoniy faoliyatni har birining tadqiq doirasiga ko‘ra shaxs omili bilan uzviylikda o‘rganish tamoyillari shakllandi va rivojlanib bormoqda.

“Verbalizatsiya” tushunchasi keng ma‘noda tajriba, his-tuyg‘ular, fikrlar, xatti-harakatlarning verbal tavsifini anglatadi. To‘liq aytganda, verbalizatsiya-bu dunyoni tavsiflovchi ramzlarning tovushli belgilanishi orqali ifoda etish jarayoni. Ko‘pchilik olimlar so‘z va frazemani tushunchani verballashtirishning asosiy vositalaridan biri sifatida e‘tirof etadilar. Demak, N.F.Alefirenko tushunchani verbalizatsiyalashning eng keng tarqalgan vositasi sifatida so‘z, frazema, ibora, gap tuzilishi sxemasini va hatto matnni “har qanday tushunchaning mohiyatini ochib bersa” deb qayd etadi.<sup>1</sup>

Ma‘lumki, o‘zbek tilida “Vatan” konseptining lisoniy manzarasini tashkil etuvchi til va nutq birliklari, xususan, ularning kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik jihatlari, ularni o‘zga tilda qayta yaratish masalalari maxsus monografik tadqiqotlarning obykti sifatida o‘rganilmagan. Bugungi kunga kelib, muloqot va bilim vositasi sifatida tadqiq etish bilan birga tilning lisoniy manzarasini inson ongida aks etishi va reprezentatsiyasida til madaniy kodlar

<sup>1</sup>Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концептов: теоретическое исследование. - Волгоград:Перемена,2003.-с.8

yig'indisi sifatida qarash tendensiyasi ilg'orlashib bormoqda. N.Y.Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi<sup>2</sup>.

Zamonaviy tilshunoslik rivojlanib borayotgan so'nggi yillarda konseptual til birliklarining pragma-kognitiv talqini muammosi konseptual tahlilning asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi.

Turli konseptlarning pragmatik, kognitiv tadqiqi masalasi konseptning lisoniy belgiga o'tish jarayonining murakkabligi va bahsliligi bilan muhimdir. Kognitsiya jarayonining birinchi bosqichi belgi orqali biror narsa yoki voqelik haqida tushuncha paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa ongimizda turli obrazlar vositasida u boyiydi. Xuddi mana shu nuqtada mental karta chiziladi. Demak, konseptning boshlang'ich nuqtasi voqelik haqidagi tasavvur –obrazdir. Uchinchi bosqichda esa konseptning lisoniy belgiga aylanish jarayoni yuz beradi, ya'ni ma'lum belgi ifodalagan obraz so'zga aylanadi. Lekin bu obraz oddiy sxematik so'z yoki biror predmetning nomini atovchi yorliq emas, mazmunli xodisadir. Konseptning lisoniy moddiylashuvi so'zdir. Ongning bunday analitik tahlilini mashhur mantiqshunos Et'en Bano de Kondilyakning quyidagi fikrlarida ko'ramiz: "Biror bir belgining yordamisiz biz o'yimizni ma'lum qismlarga ajratolmas edik va shu yo'sinda fikr yuritish voqelikning bo'laklarini alohida ko'rish imkonini berishini anglay olmas edik"<sup>3</sup>. Masalan, "*Ko'hna tolbeshidan boshlangan olam*"<sup>4</sup>. Bilish jarayoni ruhiyatda kechadi. Ma'lumki, pragmatika tushunchasi lisoniy belgilarning subyekt tomonidan bevosita nutqqa olib kirilishi va belgidan foydalanish mahoratini o'z ichiga oladi. Bunda lisoniy belgilarning funksional uslubiy xususiyatlari muhim o'rin tutib, so'zlovchining kommunikativ maqsadini ifodalashi va fikrini yetkaza olish hamda ta'sir etish darajasi asosiy ahamiyatga ega. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy. Ayrim tilshunoslar tilni o'zlashtirishda lisoniy qobiliyat tug'ma bo'lishini ta'kidlaydilar. Lekin biz bu borada ingliz kognitivistlarining lingvistik determinizm va til bizning konsepsiyalash qobiliyatimizni shakllantiradi<sup>5</sup> degan g'oyaga asosan, bilishning doimo harakatda ekanligi va bu yangidan-yangi obyektlarni idrok etishga yo'naltirilayotgan bilish harakati amaliy konsept shakllanishiga turtki bo'lgan –Vatan kontseptining noyob (betakror) verbalizatorlarini tahlilga tortdik. Konseptual til birliklarining pragma-kognitiv tahlili subyektning bilish faoliyatining spektrini aniqlashga imkon beradi. Bunga muvofiq, pragma- kognitiv semantika strukturasi vaziyat semantikasi va niyat kabi pragmatik elementlar hisobga olingan taqdirdagina tushunish mumkinligini ta'kidlaydi. Tildan foydalanish qobiliyati maxsus til moduli emas, balki umumiy bilim manbalarini talab qilishidir.

<sup>2</sup> Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang. Rasulov Z.I. Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari. O'UM.Buxoro. 2025-yil, 26-b.

<sup>4</sup> Muhammad Yusuf. Saylanma. She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. -"Sharq", 2005. "Izhori dil" . 155- b.

<sup>5</sup> Vyvyan Evans, Melanie Green. Cognitive Linguistics. Edinburg, 2006. 60-p.

“Vatan” va makon tushunchasi bizning mavjudligimizning asosiy atributlari bo‘lib, ular hech qanday obyektiv tashqi o‘zgarishlarga duch kelmaydi. Ammo ushbu tushunchalarning ekstralingvistik kategoriyasining barcha barqarorligi bilan “Vatan” konseptini ifodalashning leksik va stilistik vositalari insonning subyektiv idrok etishi bilan bog‘liq sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Muhammad Yusuf ijodida Vatan tushunchasi ushbu konseptning har qanday ona tilida so‘zlashuvchi uchun aniq dalillar tufayli makon ma’nolarini talqin qilishning odatiy ta’riflarga mos kelishni istamaydi, shuning uchun bu konsepsiyaning semantik tuzilishini tavsiflash uchun noan’anaviy metaforalardan foydalanadi. Metaforik atamalar ijodkorga “Vatan” konseptini personifikatsiya qilish orqali Vatan tushunchasini tasavvur qilishga imkon beradi. Muhammad Yusuf she’riyatidagi “Vatan” konseptosferasi quyidagi verbalizatorlar orqali yuzaga chiqadi:

*Qora mehnat yo‘rgagingdan yuqqanmi/to‘yingda ham paykalingni o‘ylaysan/cho‘l bag‘rida bo‘stonlarni yaratgan/shiyponlarda o‘ltirarding ko‘tarolmay belingni/baliq bo‘lib uvatlarda suzib yurar xayoling/dunyoda men yolg‘iz sig‘ingan odam-Elimdir mahzun/ey g‘amdan bukchaygan uylari yog‘och/shoirilar kulbasidan do‘zax bir qadam, jannat ular ikki qoshin orasi/o‘zimniki emas o‘z uyim tomi, ya’ni (ko‘p qavatli uy)/Arshda arg‘imchoqlar uchdik gohida/kezadi muqaddas mozorlarimni/baland jordan tashlandi, tillo sandiq daryoga/tarsillab qovunlar yorilgan poliz/qirlarda kekkaygan qirg‘ovullaring/soyingda qoldimi suving bir yutum/bilaman kutasan sandal to‘la cho‘g‘/mening ko‘shkim ko‘kda-unga etmaydi qo‘l/mana shu-men tug‘ilgan go‘sha, uyga yetdim ariq xatladim/garchi ipak devoring, hech kim seni qurgan yo‘q, ammo ikki dunyoda sendan baland qo‘rg‘on yo‘q (chimildiq)/Toshkanda tog‘larni sog‘indim, yashil o‘tloqlarni sog‘indim/kindik qonim to‘kilgan dala, loysuvoq tom va qari onam/yolg‘izmisan endi sen bu chorboqda/ota g‘o‘zangizni suv bosib ketdi, chumchuq vayron qildi jo‘xoringizni/kelin orzu qilib bag‘rimni tilib, to‘shak qavir qari onam qishloqda/shotut soyasida beshik bozori/umrim tog‘dan tushgan soydek eladi/qolmadi sirlar jiyda tagida/uyim qasr bo‘lsa ham agar, guvalakka almashaman men/onam meni paxtazorda tuqqan ekan/va ularga doya dala-tug‘ruqxona/cho‘chqa bosib ketdi mening bog‘imni.*

So‘zning haqiqiy “hayoti” nutq faoliyatida bo‘lib, u ayni jarayonda moddiy, real faktorga aylanadi, muayyan xabar tashiydi, inson ruhiyatiga ta’sir qiladi.

Kognitiv tilshunoslikda lisoniy konseptuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy konseptuallashtirish obyektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir. U inson ongida to‘plangan ma’nolarni verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo‘lib, qisman universal, qisman milliy xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, Muhammad Yusufning *Tolkosaday makoni bor ayronning*<sup>6</sup> jumlasida “Vatan” konseptining verbalizatori bo‘lib xizmat qilayotgan *tolkosa* ayron uchun *vatan* vazifasini o‘tayotganligi lisoniy konseptuallashtirishning milliy xarakteriga egadir.

<sup>6</sup> Muhammad Yusuf. Saylanma. She’rlar. Dostonlar. Xotiralar. -”Sharq”, 2005. “ Bu beshafqat” . 73- b.

Insonning emotsional doiradagi kechinmalari konseptuallashtirish ekan, lekin bu tajriba faqat individualgina emas. U evolyutsion tarzda rivojlanib boradi va inson ongining taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi. Bu jarayonlarni umumlashtirish va tipiklashtirish, ular asosida ijodiy ongning rivojlanish dinamikasini, umuminsoniy va milliy xususiyatlarni ochib berish mumkin.

Bizningcha, poetik matnda voqelikni tanlash va ularni ifodalash yoʻllari shoirning ijodiy individualligigagina bogʻliq boʻlmay, ijodkor ongi shakllangan maʼlum muhit taʼsirida ayrim universalialarni oʻzlashtiradilar. Pirovardida, olamning poetik tasviridagi belgilar milliy-madaniy tipologiyasi farqlanadi.

### **Adabiyotlar roʻyxati**

- 1.Краткий словарь когнитивных терминов. Сост. Е.С. Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина. М., 1997.
- 2.<https://psihomed.com/kognicziya/>
- 3.Попова З.Д., Стернин. И.А. Когнитивная лингвистика. М.: АСТ: Восток-Запад, 2007.
- 4.Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концептов: теоретическое исследование. -Волгоград: Перемена, 2003.
- 5.Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005.
- 7.Vuuyan Evans, Melanie Green. Cognitive Linguistics. Edinburg.2006.
- 8.Muhammad Yusuf. Saylanma. Sheʼrlar. Dostonlar. Xotiralar. -”Sharq”, 2005.